XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QARORI

2022 - yil 17 - may VI-55-74-12-180-K/22 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahridagi “Olimpiya” hamda “Temiryo’lchi” mahallasini bo‘lish hisobiga yangi mahallalar tashkil etish, nom berish hamda ularning chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son qaroriga asosan, xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Urganch shahar Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2021-yil 21-dekabrdagi 1303-sonli xati hamda shahar hokimligi huzuridagi “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 8-fevraldagi 27-sonli yig‘ilish bayoni inobatga olinsin.

2. Urganch shahar hokimligining “Urganch shahridagi “Olimpiya” hamda “Temiryo'lchi” mahallalarini bo‘lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nom berish hamda ularning chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risida”gi takliflari ma’qullansin.

3. Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr Agentligining Urganch shahar bo‘limi (S.Saidov)ga:

- Urganch shahridagi hududiy chegaralarni qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo'linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallalarning nomlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

- Urganch shahridagi hududiy chegaralarni qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallalarning chegaralari va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Urganch shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q.Kenjaev)ga:

- yangi tashkil etilgan mahallalarning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin;

- hududiga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Urganch shahar hokimi o‘rinbosarlari mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda – aholi punktlarini

zamonaviy shaharsozlik talablari va milliy an’analarga muvofiq kompleks rivojlantirishni ta’minlash, me’moriy-tarixiy merosni saqlab qolish, qabul qilinayotgan loyiha yechimlari sifatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 12-fevraldagi “Aholi punktlarini kompleks qurishda shaharsozlik normalari va qoidalari qat’iy bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 41-son qarori talablari asosida yangi tashkil etilayotgan “Nurli hayot” mahallasi hamda “Yangi O‘zbekiston” mahallasi hududida joylashgan ko‘chalarni tartibga keltirish, obodonlashtirish hamda mahalla fuqarolar yig‘iniga zamonaviy mahalla qurish choralarini ko‘rsin.

6. Urganch shahar hokimining birinchi o‘ribosari (J.Eshchanov), shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q.Kenjaev), shahar moliya bo‘limi (J.Sapaev) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan tegishli tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

7. Urganch shahar Statistika bo‘limi (A.Rahimov) o‘n besh kun muddatda “Urganch shahridagi “Olimpiya” hamda “Temiryo‘lchi” mahallalarini bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilayotgan “Nurli hayot” mahallasi hamda “Yangi O'zbekiston” mahallasi tashkil etilishi tasdiqlanganligini inobatga olib, barcha zaruriy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin va shahardagi barcha boshqarma, idora va tashkilotlarni xabardor qilsin.

8. Urganch shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (N.Babajonov), shahar Moliya bo‘limi (J.Sapaev), shahar Ichki ishlar bo‘limi (T.Yuldashev), Shahar Davlat xizmatlari agentligi (S.Ashirov),Urganch shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q.Kenjaev), Kadastr agentligining Urganch shahar bo‘limi (S.Saidov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdolniyazov), shahar Statistika bo‘limi (A.Rahimov) bir oy muddatda mazkur qarorga asosan hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin hamda boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlari nomlari, chegaralari, aholi va xonadonlar sonini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazani shakllantirish, moliyalashtirish va bino bilan ta’minlash, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirsinlar.

9. Urganch shahar hokimligi Axborot xizmati (B.Xudayberganov)ga mazkur qarorning matbuotda e’lon qilinishini hamda veb-saytga joylashtirilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror matbuotda e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

11. Urganch shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (N.Matyaqubov)ga: yangi tashkil etilgan mahallalarni Davlat reestriga kiritish uchun mazkur Kengash qarorini o‘n kun muddatda Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga taqdim qilsin.

12. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urganch shahar Kengashidagi Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha kommissiyasi raisi (SH.Xalimov) va Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha komissiyasi raisi (F.Raxmanov) hamda Urganch shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov, shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Q.Kenjaev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Xolboyev**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2022 yil 17 maydagi
VI-55-74-12-180-K/22-son qaroriga
1-ilova

Urganch shahridagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallalarning nomlari

R O' Y X A T I

№	Bo‘linadigan mahalla nomi	Bo‘linish xisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla nomi	Izoh
1.	“Olimpiya” mahallasi	“Nurli hayot” mahallasi	Mahalla fuqarolar yig‘inlari va Urganch shahar hokimligi taklifi asosida
2.	“Temiryo'lchi” mahallasi	“Yangi O‘zbekiston” mahallasi	Mahalla fuqarolar yig‘inlari va Urganch shahar hokimligi taklifi asosida

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2022 yil 17 maydagi
VI-55-74-12-180-K/22-son qaroriga
2-ilova

Urganch shahridagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallalarning chegaralari va tavsifi

“Olimpiya” mahalla yig‘ini chegarasi va tavsifi

Markazi: Urganch shahri, 4-daha, “Zarbuloq” ko‘chasi

Aholisi: 4278 nafar

Oila: 1610 ta

Xonadon: 1064 ta

Baynalminalchi ko‘chasi bilan P.Mahmud ko‘chasi kesishmasidan P.Mahmud ko‘chasining shimoliy yo‘nalishi bo‘ylab, Jannatmakon ko‘chasi bilan Barkamol avlod ko‘chasi kesishmasigacha, Jannatmakon ko‘chasi bilan Barkamol avlod ko‘chasidan Barkamol avlod ko‘chasining sharqiy yo‘nalishi bo‘ylab, 4-daha 17/2-uygacha, 4-daha 17/2-uyning orqa tomonidan janubiy yo‘nalish bo‘ylab, 4-daha 42-uygacha, 4-daha 42-uyning orqa tomonidan Baynalminalchi ko‘chasidan g‘arbiy yo‘nalish bo‘ylab, Baynalminalchi ko‘chasi bilan P.Mahmud ko‘chasi kesishmasiga tutashib chegara yopiladi.

“Nurli hayot” mahalla yig‘ini chegarasi va tavsifi

Markazi: Urganch shahar, Fayozov hamda Jannatmakon ko‘chalari kesishmasi.

Aholisi: 4224 nafar

Oila: 1633 ta

Xonadon: 1309 ta

Yangi tashkil etiladigan “Nurli hayot” mahallasi hududi Baynalminalchi ko‘chasining o‘ng tomoni yoqalab Fayozov ko‘chasining shimoliy

yo‘nalishi bo‘ylab, Urganch tumanining o‘ng g‘arbdan-shimoliy yo‘nalishi bo‘ylab P.Mahmud ko‘chasi kesishmasigacha, P.Mahmud ko‘chasidan “Xorazm o‘yingohi” yon tomonidan Baynalminalchi ko‘chasi bilan tutashib chegara yopiladi.

“Temiryo‘lchi” mahalla yig‘ini chegarasi va tavsifi

Markazi: Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko'chasi, 3b-uy

Aholisi: 3988 nafar

Oila: 1424 ta

Xonadon: 1219 ta

Al-Xorazmiy ko‘chasi bilan Xonqa ko‘chasi chorrahasidan, Al-Xorazmiy ko‘chasi – Yoshlik ko‘chasi chorrahasigacha, Al-Xorazmiy – Yoshlik ko‘chasi chorrahasidan to Yoshlik massivini qamrab olib, Yoshlik ko‘chasi – Termiz ko‘chasi kesishmasigacha. Yoshlik ko‘chasi – Termiz ko‘chalar kesishmasidan to Termiz ko‘chasi – Xonqa ko‘chalari kesishmasigacha, Xonqa ko‘chasi 28-30-uylarni qamrab olib, Termiz ko‘chasi va Xonqa ko‘chalari kesishmasidan, Xonqa ko‘chasi – Al-Xorazmiy ko‘chasi chorrahasiga tutashib chegara yopiladi.

“Yangi O‘zbekiston” mahalla yig‘ini chegarasi va tavsifi

Markazi: Urganch shahar, Xonqa ko‘chasi, 1-yo‘lak, ½-uy

Aholisi: 3890 nafar

Oila: 1349 ta

Xonadon: 1245 ta

Yangi tashkil etiladigan “Yangi O‘zbekiston” mahallasi hududi Al-Xorazmiy ko‘chasi bilan Xonqa ko‘chasi chorrahasidan Al-Xorazmiy ko‘chasi – Yoshlik ko‘chasi chorrahasigacha, Al-Xorazmiy ko‘chasi – Yoshlik ko‘chasi chorraxasidan Avtovokzal va Temiryo'l vokzali va Temiryo'lchi ko‘chasidagi

barcha uylarni qamrab olib, Yoshlik – A.Bahodirxon ko‘chalari kesishmasigacha Kazarma ko‘chasidagi barcha uylarni qamrab olib, Yoshlik ko‘chasi hamda A.Bahodirxon ko‘chasi kesishmasidan - A.Bahodirxon ko‘chasi va Xonqa ko‘chasi kesishmasigacha, A.Bahodirxon – Xonqa ko‘chalari kesishmasidan to Xonqa – Al-Xorazmiy chorrahasiga tutashib chegara yopiladi.